

Sayyoraxon ABDURAXMONOVA,

“University of economics and pedagogy” NOTM, Pedagogika kafedrasи o‘qituvchisi

E-mail: abduraxmonovasayyora85@gmail.com

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti G.Oripova tahriri asosida

PEDAGOGIK AMALIYOT — TALABALARNI OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK QILISHGA TAYYORLASHNING ILMUY NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada pedagogik amaliyot — talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning muvaffaqiyatlari kaliti hisoblanib, talabalarni kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy vosita ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.Bir qator olim va tadqiqotchilarining mavzuga doir qarashlari ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilgan.Ularni hamkorlik qilishga tayyorlashda pedagogik amaliyotning vazifasi belgilab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik amaliyot, malakaviy amaliyot, o‘quv amaliyot, bitiruv oldi amaliyoti, „4+2“, pedagogik faoliyat, pedagogik bilim, talaba, ota-ona, talaba, hamkorlik qilish, kasbiy faoliyat.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРАКТИКА — НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ ОБУЧАЮЩИХСЯ К СОТРУДНИЧЕСТВУ С РОДИТЕЛЯМИ

Аннотация

В статье показано, что педагогическая практика считается залогом успешной подготовки учащихся к сотрудничеству с родителями, а также является основным инструментом формирования профессиональной подготовки, практических навыков и компетенций учащихся. сотрудничество определено.

Ключевые слова: Педагогическая практика, профессиональная практика, учебная практика, преддипломная практика, «4+2», педагогическая деятельность, педагогические знания, студент, родитель, студент, сотрудничество, профессиональная деятельность.

PEDAGOGICAL PRACTICE — SCIENTIFIC THEORETICAL BASIS OF PREPARING STUDENTS TO COOPERATE WITH PARENTS

Annotation

The article shows that pedagogical practice is considered to be the key to successful preparation of students to cooperate with parents, and is the main tool in the formation of students' professional training, practical skills and competences. The role of pedagogical practice in preparing them for cooperation is defined.

Key words: Pedagogical practice, professional practice, educational practice, pre-graduation practice, "4+2", pedagogical activity, pedagogical knowledge, student, parent, student, cooperation, professional activity

Kirish. Oliy ta’limda talabalarni pedagogik faoliyatini tadqiq etish va tashkil etish, ularning kasbiy faoliyatda o‘zaro munosabatlarini namoyon qilishi uchun hamkorlikka tayyorlash jarayoniga yangicha talablarni qo‘yadi. Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan yangiliklar bilan bog‘liqlikda biz olib borgan tadqiqotning maqsadi ham pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishning zarurati, mazmuni, shakl va metodlarini aniqlash, tajriba-sinov ishlari orqali ularni amaliyotga keng tatbiq etishdan iboratdir. Shunga ko‘ra, tadqiqot jarayonida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning ilmiy-nazariy asosi o‘rganildi.

Jamiyat rivojining zamonaviy bosqichi mamlakatning bo‘lajak fuqarosi shaxsini shakllantirishning asosiy ijtimoiy instituti hisoblangan ota-onalar rolining ortib borayotganligi bilan xarakterlanadi. Bolalarning tarbiysi, aniqrog‘i, ularning ijtimoiylashuvni ta’lim muassasalaridagina emas, balki ota-onalar tarbiyasidan boshlanadi. Bola tarbiyasida ota-ona mas’uliyatini oshirish, ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish eng dolzarb masalalardan bira hisoblanadi.Jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi hujjat bo‘lgan Qomusimiz Konstitutsiyamizda oila masalasiga ham alohida urg‘u berilgan. Konstitutsiyamizda: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”[1], O‘zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi”ning 21-moddasida:—“Bolalar tarbiysi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini er va xotin birligida hal qiladilar”[2] deb belgilab qo‘yilgan.

Muhitaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviyat qo‘rg‘oni bu – oiladir”. Shu bois ota-onalarning tarbiyiy rolini kuchaytirish maqsadida unga doimiy yordam talab qilinadi. Ota-onalar bilan ishlashning zaruriyati qator omillarga asoslanadi: oilaviy tarbiya bilan jamiyatning ijtimoiy muammolar o‘rtasidagi bog‘liqlikning mavjudligi, yosh ota-onalar bola tarbiyi bo‘yicha ularga zaruri yordam ko‘rsatilishiga ehtiyoj sezadilar va bolalar ham o‘z-o‘rnida pedagogik bilimli ota-onaga ehtiyoj sezadilar.Milliyy madaniyat, bola tarbiysi va rivojlanishi haqidagi pedagogik bilimlarni takomillashtirish bo‘yicha yaxlit tarbiya tizimi ham ota-onalar, ham maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida pedagog bolaning, ota-onalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qiladi va o‘z ishini teng sheriklik asosida qurishi muhimligi belgilab berilgan bo‘lib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining asosiy vazifalaridan bira bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirishdan iborat[3] ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Bugungi, globallashuv davrda tez sur’atlarda shiddat bilan o‘zgarayotgan hayot bola shaxsini kamol topishida har kungidan ko‘ra, ota-onalar bilan hamkorlik rishtalarini mustaxkamlash va buni aynan oliy ta’limda tizimli ravishda takomillashtirish kerak deb xisoblaymiz.

Pedagogik amaliyot talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashda asosiy vositalardan bira, kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatlari kaliti hisoblanadi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuning 35 - moddasida shunday deyilgan: “O‘quv rejasida, qoida tariqasida, ta’lim jarayonining jadvali, o‘qitishning boshlanishi, muddati va davriyligi, o‘quv yillari, choraklar, semestrlar, amaliyot, ta’tillar hamda attestatsiya, ajratilgan haftalar soni, o‘rganiladigan fanlar (modullar) va ularga ajratilgan soatlar (kreditlar) hamda boshqa zarur parametrlar aks ettiriladi. Ta’lim oluvchilarning amaliyotni o‘tash tartibi va uni tashkil

etish ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi.Ta'lim oluvchilar kasbiy ko'nikmalarini mukammal egallashi uchun o'quv rejalarini va muayyan fanlarning o'quv dasturlarida o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini o'tashlari shart"^[4].

Pedagogika ta'lim sohasi talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomida "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli qaroriga muvofiq olyi ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari sinov-tajriba asosida malakaviy pedagogik amaliyotini o'tash tartibini belgilaydi^[5].

Tadqiqot metodologiyasi. "Falsafa qomusiy lug'ati"da amaliyot atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi; amaliyot – bilish nazariyasinig muhim tushunchalaridan biri.Amaliyot-insonning borliqni, tabiatni, jamiyatni va uni o'zgartirishga qaratilgan maqsadga muvofiq xatti-harakatning ummlashmasiga aytildi" deb ta'rif berilgan.^[6]

P.B.Obradovich^[7]ning fikriga ko'ra, pedagogika fani uchun ta'lim nazariyاسини ta'lim amaliyoti bilan bog'lash masalasi o'ta dolzarb va muhim masala hisoblanadi. Ushbu vazifaga erishishning usullaridan biri - bu pedagogik amaliyot" deb ta'kidlagan. Xorijiy tadqiqotchilar J.Rrustemi va V. Kurteshi^[8]lar olib borgan tadqiqotlarda pedagogik amaliyotni talabaning kasbiy tayyorgarligiga yordam beruvchi omillarini tavsiflab: "... talabalarni o'qituvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlashi, ta'lim muassasasining sog'lom muhiti, pedagogik amaliyotning davomiyligi, amaliyot davrida turli qiyinchiliklarni yengib o'tishida muhim ahamiyatga ega" desalar, I.V.Shumova: "Pedagogik amaliyoti - bu o'z ilmiy izlanishlarini taqlid qilish imkoniyatini beruvchi, bo'lajak mutaxassisiga yangi narsalarni ishlab chiqish, tadqiqot jarayonlari texnologiyasini o'zlashtirish, maxsus kompetensiya va kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam berish uchun mo'ljallangan o'quv faoliyati turi"^[9] ekanligi haqida ayтиб o'tgan.

Darhaqiqat, pedagogik amaliyotning o'quv-uslubiy jarayondagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Shuning uchun pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazishning huquqiy asoslari, pedagogik amaliyotni o'tkazishga tayyorlashda olyi ta'lim muassasasining vazifalari, amaliyotchi talabalarning ish hujjatlari, amaliyotchi talabalarning ota-onalar bilan hamkorlik texnologiyalari kabi bir qator zaruriy yo'nalishdagi masalalarni yoritishni ushbu dissertatsiya ishimizda o'z oldimizga maqsad qilib qo'yanamiz.

A.B.Ligostayeva^[10] esa, "pedagogik amaliyot ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy pedagogik tayyorlash shakli.Uning muvaffaqiyatlari tashkil etilishi bo'lajak tarbiyachilarga haqiqiy pedagogik voqelik faktlarini to'plash, tahlil qilish va nazariy jihatdan tushunish imkonini beradi. Talabalar nazariy bilimlarning yetakchi o'rnimi anglab yetadilar va ilgari olingan bilim, ko'nikma va malakalarni tanqidiy baholaydilar" deb ta'riflagan.

N. V. Nevodnichenko^[11] esa, Pedagogik amaliyotining muvaffaqiyatli o'tishi bo'lajak pedagogning kasbiy malakasini oshirish, innovatsion faoliyatga tayyorlash vositasi ekanligini ta'kidlaydi. Talabalar – pedagogik amaliyot davomida ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etish nazariyasi va amaliyotini o'zlashtirishlari, bolalarning yoshga bog'liq xususiyatlarni bilishi, aqliy rivojlanishi, ongi, his-tuyg'ulari va irodasiga pedagogik ta'sir qilish usullarini to'g'ri aniqlash ko'nikmalarini egallashi, ijtimoiy hodisalar haqidagi g'oyalarning yaxlit tizimini shakllantirish jarayoniga ularning axloqiy ongini boyitadi va bo'lajak tarbiyachi sifatida shaxsiyatini shakllantirishga xizmat qilad" deydi N. E.Burlakova^[12] tadqiqot tahlilida.

Pedagogik amaliyotni tashkil etish XX asrning 30-40-yillardan alohida ta'limni tashkil etish shakli sifatida qo'llanila boshlangan. Dastlab u ekskursiya tadqiqotchilik, metodik-pedagogik amaliyot, stajyor-pedagoglik ko'rinishlarda tashkil etila boshlangan bo'lsa, keyinchalik ijtimoiy-pedagogik amaliyot, yozgi pedagogik amaliyot, o'quv-tarbiyaviy amaliyot shaklida keng qo'llanilib kelgan. N.N.Azizzo'jayeva^[13] olyi pedagogik ta'limda pedagogik amaliyotni tatbiq etilishining tarixiy asoslarini ochib bergenlar.

M.Quronov^[14] milliy tarbiya imkoniyatlaridan pedagogik amaliyot jarayonida foydalanish yo'llarini, N.Muslimov esa kasb ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy shakllanishida pedagogik amaliyotning ahamiyatini ochib bergan.

Jumladan, Z.S.Qodirova^[15]ning olib borgan tadqiqotini bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirishda malakaviy amaliyotning o'rni haqida olib borgan.

Pedagogik amaliyotning maqsadi – talabalarни kasbiy faoliyatga tayyorlash, olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, pedagogik faoliyat mas'uliyatini his etish va o'z ustida ishslash ko'nikmasini shakllantirish, shuningdek, amaliyot jarayonida talabalar bolalarni tarbiyalashga, ta'lim va tarbiyaviy jarayonlarni tarbiyachilar, ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshirishga, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy hamda estetik jihatdan tarbiyalashning birligini ta'minlashga o'rgatishdan iborat.

Sh.Sh.Olimov, B.T. Jurayevlar^[16]ning fikriga ko'ra: - Shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik amaliyot davrida talabalarning ishi ijodiy xarakterga bo'lishi lozim. Talabalar o'z kasbiy majburiyatlarini ijodiy bajarsa, pedagogik topshiriqni hal qilishining samarali shakl va usullarini qidirsra, o'zi tanlagan kasbiga munosabati, pedagogik faoliyatga qiziqishi kasbiy mahorati oshib boradi.Shu nuqtayi-nazardan olib qaraganda pedagogik amaliyot ilg'or ish tajribalarini o'rganish maskani mahorat maktabi hisoblanadi.

Amaliyot — kasbiy faoliyat bilan bog'liq ayrim faoliyat turlarini bajarish jarayonida amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan o'quv faoliyati turi (shakli).^[17]

Tahhil va natijalar. Olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, pedagogik amaliyot haqida quyidagicha mulohazalarimiz bor. Pedagogik amaliyot – talabalarni ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda nazariy bilimlarni qo'llash, hayotga amaliy tayyorlash shakli va doimiy kasbiy rivojlanishning boshlanishidir.Peadogogik amaliyot - ota-onalar bilan hamkorlikda ishslash ko'nikmalarini egallash davridir.

Pedagogik amaliyot namunaviy va ishchi o'quv rejasiga mos ravishda amalga oshiriladi.Uning mazmuni amaliyot turiga qarab, kafedrada ishlab chiqilgan dasturiga mos bo'lishi, o'quv mashg'ulotlaridan ajralgan holda tashkil etilishi lozim.

Amaliyot OTMga biriktirilgan tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtaida tuzilgan amaliyot to'g'risidagi shartnomalar asosida tashkil etiladi. Pedagogik amaliyot kasb-hunar ta'limining tarbiyaviy maqsad va vazifalarini amalga oshiradi, talabalarning pedagogik qobiliyatini tarbiyalaydi va rivojlantiradi, har bir kurs bo'yicha o'z vazifalari, mazmuni va tuzilishiga ega; unda tegishli muassasalarining bitiruvchi bo'limlari ishtiroy etishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022 yildagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi olyi ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"^[18]gi PQ-289-sonli Qaroriga ko'ra, pedagog kadrlar tayyorlovchi OTM kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalar uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida, shu jumladan darslar 4 kuni OTMdagi, 2 kuni maktabgacha va umumiyo o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishi ta'minlanadi".

Pedagogik amaliyot davrida hamma talabalar ham o‘zlarini to‘la bo‘lajak tarbiyachi sifatida namoyon qila olmaydi. Shunga ko‘ra amaliyot rahbari va MTT tarbiyachisi birgalikda individual suhbatlar, tushuntirishlar orqali amaliyotchi-talabaning kasba tayyorlarlik xolatini aniqlashi va kasba qiziqishni uyg‘otish kerak. Bu bo‘lajak tarbiyachilarining kasbiy qobiliyatlarini yanada yuqori darajada rivojlantirishga yordam beradi.

Talabalarning pedagogik amaliyoti ta’lim muassasalarida talabalarning nazariy tayyorlarligini, ularning amaliy faoliyati bilan o‘qish yillari davomida izchil va ma‘lum bir tizimda uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Talabalar tomonidan turli xil pedagogik faoliyat turlarini amaliy rivojlantirish, zamonaviy tarbiyachining pedagogik madaniyati asoslarini o‘zlashtirishga xizmat qildi. Oliy o‘quv yurtida o‘qishga ongli mas‘uliyat bilan munosabatda bo‘lishlari, ularning bilim mustaqilligiga qodir bo‘lgan mutaxassis va intellektual shaxs sifatida kamol topishining asosiy yo‘li sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Pedagogik amaliyot talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlasting shunday shaklidirki, bunda har bir talaba o‘qish davrida to‘plagan bilimlardan kompleks tarzda foydalananadi va pedagogik amaliyot davrida ota-onalar bilan muloqotda qo‘llaydi. Bu esa, hamkorlikda ishlashning o‘ziga xos sinov vazifasini o‘taydi. Shuni nazarda tutish kerakki, talabalarning bolalar va ularning xatti-harakati yuzasidan samimiy aloqada bo‘lishi nihoyatda muhim. Talabalar tomonidan ota-onalar bilan mustahkam aloqa qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilsa, bola shuncha ko‘p yordam oladi hamda uning dastlabki ta’lim tajribasi muvaffaqiyatlari bo‘lishi ehtimoli ortadi.

Tadqiqotimiz mavzusi mohiyatini anglatishga qaratilgan hamkorlik termini ma‘nosidagi ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, hamkorlikda –“sub’ekt” “sub’ekt” munosabatlari hamda o‘quv-tarbiya jaryonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amaliyotga tadbiq qilgan holda yuqori natijalarga erishishni ta’minlaydi.

Pedagogik amaliyot vositasida talabalar ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashning ijtimoiy-pedagogik zaruriyatini bilish, shuningdek, ota-onalarning individual tipologik xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” ning 76-moddasi (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).
2. <https://lex.uz/docs/-104720?otherlang=1>
3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (Takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent-2022.
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni Ta’lim to‘g‘risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil.
5. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim, Xalq ta’lim va Maktabgacha ta’lim vazirliklarining 2019-yil 5-martdag‘i 10-q/q-13-4-son qaroriga ilova Pedagogika ta’lim sohasi talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotini tashkil etish tartibi to‘g‘risida muvaqqat nizom.
6. “Falsafa qomusiy lug‘at” “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti” “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. Toshkent.2004 y. 23 b.
7. P.B.Obradovich “Pedagogical practice way of connecting pedagogical theory and practice” (IJCRSEE) International Journal of Cognitive Research in science, engineering and education Vol. 1, No.2, 2013.152-p.
8. Rrustemi, J., Kurteshi, V. (2023). Pedagogical practice as a foundation course for the development of professional skills. International Journal of Instruction, 16(2), 1135-1150. <https://doi.org/10.29333/iji.2023>.
9. Шумова И. В. Методика организации и проведения педагогической практики бакалавра-филолога на основе кейс-технологий:автореф.кан.пед.наук.2010.12-с.
10. Лигостева А.В. Организация летней педагогической практики в процессе профессиональной подготовки студентов педагогического колледжа: Дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. Оренбург, 2001. - 159 с.
11. Nevodnichenko, N.V. “Pedagogik amaliyot bo‘lajak o‘qituvchini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash vositasi sifatida” Dissertatsiya avtoreferati. dis. Ph.D. ped. Nijniy Novgorod, 2005.18-b.
12. Burlakova N.E. Ta’lim bakalavriatlari va mutaxassislarini ko‘p bosqichli tayyorlash tizimidagi pedagogik amaliyot: Dissertatsiya avtoreferati. dis. Ph.D. ped. Sci. Lipetsk, 1999. – 22-b.
13. Azizzomayeva N.N. “O‘qituvchi mutaxassislikka tayyorlash texnologiyasi”. -T.: TDPU 2000 30,-B.
14. Quronov M. “O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim muktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asosları” pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., Qori Niyoziy nomli O‘zPFTI, 1998, 157-b.
15. Z.S.Qodirova Bo‘lajak tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish (Malakaviy amaliyot misolida) „Navruz“ nashriyoti 2019 yil.
16. O‘zbekiston uzlusiz ta’limining davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti 2021-yil 16-iyul.
17. Olimov Sh.Sh., Juraev B.T. Malakaviy amaliyot. Metodik qo‘llanma. –B.:Buxoro davlat universiteti, 2021. - 41 b.
18. Esanov, M.”Oliy ta’limni kredit-modul asosida tashkil etish metodikasi” [Matn]: metodik qo‘llanma /– Toshkent: “Sano-Standart”, 2023. – 6-b.
19. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.06.2022 y., 07/22/289/0562-son; 04.07.2023 y., 06/23/107/0441-son.